

O'ZBEK SHE'RIYATIDA AYOL OBRAZI

Feruza Rahmataliyeva
FarDU 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyotimizning eng avvalgi davrlaridan boshlab zamonaviy she'riyatimizga qadar ayollar obrazi haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar: ayol, obraz, o'xshatish, qarshilantirish, erk, hurlik, ayol siymosi

Ayol siymosi nafaqat zamonaviy o'zbek she'riyatida balki adabiyotimizning eng avvalgi davrlarida ham go'zallik, vafo va ma'naviy soflik ramzi sifatida ulug'lanadi.

O'zbek adabiyotiga tamal toshini qo'ygan Mir Alisher Navoiy asarlarida ayollarni har tomonlama yetuk nafosat va fasohat sohibalari sifatida yuksak qadrlanganini kuzatish mumkin. "Farhod va Shirin" dostonida asosiy qahramonlaridan biri Shirin komillik tomon borayotgan Farhodning yo'lchi yulduzi sifatida gavdalanadi. Tengsiz go'zalligi bilan bir qatorda qat'iyatli, hur fikrli, hayot yo'lida uchrovchi mashaqqatli sinovlarga ham aql, ham tadbir bilan chora topa oladigan malika sifatida yuksak tasvirlanadi.

Milliy uyg'onish adabiyoti, ya'ni ma'rifatparvarlik adabiyotiga nazar tashlasak, ayol timsoliga murojaat qilish, dastlab, "O'tkan kunlar" (Kumushbibi, Zaynab, O'zbek oyim), "Kecha va kunduz" (Zebi, Qurvonbibi), "Mehrobdan chayon" (Ra'no, Nigorxonim) kabi nasriy asarlarda namoyon bo'ldi. Ma'rifatparvarlik she'riyatida, asosan, ayollarga qilingan zulm, jamiyatda ayollar mavqeyining pastligi va uni yuksaltirish haqidagi masalalarga chuqur e'tibor qaratildi. Jadid adabiyotining yorqin vakili Abdulhamid Cho'lponning qator she'rlarida o'sha davr ayollarining qismati, erksizligi, hurlikka bo'lgan ehtiyoji o'ziga xos ramzlar vositasida namoyon bo'ladi. Shoirning "Binafsha" she'rini tahlilga tortamiz. She'rda binafsha o'sha davr ayol-qizlarining ramzidir. Mazkur gul she'rda "aqchaga sotilgan", "bir ozroq ochilmay" uzilgan, "hidlari sochilmasdan yerlarga egilgan, yanchilgan" deya ta'riflangan. Mazkur holatlar shoir yashagan davrda ayol-qizlarga nisbatan munosabatlarni ramziy ko'rsatib turibdi, deyishimiz mumkin. Ya'ni, binafshaning ko'chada aqchaga sotilishi - johil otalar tomonidan eshonlarga nazr qilingan qizlarning, boy zodagonlar tomonidan buyum kabi munosabat qilingan ayollarning badiiy ifodasidir. Ayni holat shoirning "Qor qo'ynida lola", "Kecha va kunduz" asarlarida navnihol qizlarni boylarga bir necha ayoli bo'lishiga qaramasdan berib yuborilishi holatlari bilan badiiy-ramziy holatda uzviy bog'liqdir.

Cho'lpon she'riyatida nafaqat xalqning erki, balki ayol-qizlarning qadriyatini, hurmati ham yetakchi mavzu bo'la oladi:

*Ko'nglimda yig'lagan malaklar kimlar,
Sharqning onalari, juvonlarimi?
Qarshimda yig'lagan bu jonlar kimlar,
Qullar o'lkasining insonlarimi?*

Yuqoridagi to'rtlikda shoirning yurt ozodligi va undagi ayollar erkinligi haqidagi qarashlari uyg'unlashib ketganiga guvoh bo'lamiz. Mazkur masalalar shoir qalbini shunchalik chuqur iztirobga soladiki, Sharq onalari, ayollari ko'nglida yig'layotganini ifoda etadi.

Mustaqillik davri she'riyatida esa ayol obrazi psixologiyasi, ichki olami, ruhiyati keng ifoda etildi. Xassos shoir Xurshid Davronning "Ayol" sherini tahlilga tortamiz:

*U ayolning qo'llari dag'al,
U ayolining ko'ylagi dag'al.
Uni har kun kaltaklar eri
Har kun yuzda ko'karar dog'lar
Kecha nogoh yo'lning chetida
Ko'rib qoldim o'sha ayolni,
U hidlardi men sezmay o'tgan
Mittigina marvaridgulni.*

She'rda ayol portreti bilan birgalikda ichki olami ham badiiy mahorat bilan chiziladi. Lirik voqelikka ko'z tashlaymiz: Ayolning qo'llari dag'al, hatto ko'ylagi ham dag'al, yuzlari kaltak zarbidan ko'kargan bo'lishiga qaramasdan hatto shoir payqamay o'tib ketgan mittigina gulni his qilmoqda, hidlamoqda. Marvaridgul - juda kichkina, yo'l chetida o'suvchi, ko'pchilik hatto sezmay o'tib ketuvchi mittigina gul. She'rda badiiy timsol darajasiga ko'tarilganligini kuzatish mumkin. Baxtiyor Nazarov shunday deydi: "Xurshid she'rlarida topib aytilgan chiroyli obrazlar vujudimizga xuddi quyosh nurlariday erkin singishib ketadi."¹ Xuddi shunday gul o'zida ayol qalbining ishqqa, nafosatga intilishini ifoda etib kelyapti. Shoir insonlar har qanday hodisadan ta'sirlana biladigan, boshqa oddiy insonlar e'tibor bermagan go'zalliklarni ko'ra biladigan ko'ngil sohiblari bo'ladi. She'rda ifodalanishi bo'yicha hatto shoir ham payqamay o'tgan mittigina go'zallikni ayol o'z qalbi, fitrati ila his qilmoqda. She'rda dag'allik va ayol qalbi go'zalligi bir-biriga zid qo'yilib qarshilantirish badiiy san'atini yuzaga keltirmoqda.

¹ Nazarov B. Yuragimning derazalari. 1984 <https://kh-davron.uz/ijod/adib/baxtiyor-nazarov-yuragimning-derazalari.html>

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'zbek shariyatida ayol qalbi, uning kechinmalari eng nozik bo'yoqlar bilan tasvirlanadi. Adabiyotning tarixi, buguni va ertasini ayol obrazisiz, ularning go'zal siymolarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. v.b. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
2. Oripova G. Mustaqillik davri she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Monografiya. – Riga: GlobeEdit, 2020
3. Oripova Gulnoza Murodilovna, Akhmadjonova, Okila Abdumalikovna, Kholmatov, Oybek Umarjon Ugli, & Muminova, Tabassum Siddigovna (2022). Interpretation of mother image in literature. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 304-309.
4. Oripova G. (2019). Uzbek poetry and the world literature in the years of independence. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
5. Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. Toshkent: Sharq, 1997